

INSON QADRI HAR NARSADAN ULUG'

Sodiqova Mehriqul Ibrohimovna

*Buxoro viloyat Jondor tuman 2-son kasb-hunar maktabi maxsus fan
o'qituvchisi*

***Annotatsiya.** Biz shu yurtda shu zaminda yashab yurgan ekanmiz bir-birimizni hurmat qilishimiz, bir-birimizni qadrlashimiz shart va zarurligi hattoki hadislardayam aytib o'tilgan. Chunki qadr-qimmat yo'qolsa yoshlarning izzati, keksalarning hurmati, insonning insoniylik fazilati yo'qoladi, hayot barbot bo'ladi. Zotan insonni ulug'lash, e'zozlash, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish dinimizning maqsadlaridan biridir.*

***Kalit so'z:** Mehr oqibat, qadr-qimmat ham qanaqadir manfaatlar yo'lida, nafs yo'lida qurbonlik, odamiylik.*

“Ilm inson vujudining xushmanzara bog'idir va odamiylik olamining javohirga boy tog'idir.

Yumshoq ko'ngillik hodisalar to'la dengizdagi kishilik kemasining langari desa bo'ladi va insoniyat qadrini o'lchaydigan tarozining toshiga tenglashtirsa ham bo'ladi”. Alisher Navoiy o'z hikmatlarida insoniylik qadr qimmatu to'g'risida shunday serma'no so'zlarni qoldirib ketgan. Darhaqiqat inson qadri har narsadan ulug'.

Amr ibn Shuayb otasidan, u kishi bobosi roziyallohu anhumdan rivoyat qiladilar:

Nabiy sollallohu alayhi vasallam: “Kichikligimizda rahm qilmagan, kattalarimizni qadrlamagan bizdan emas” dedilar.

Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning bizdan emas deyishlari juda og'ir so'zdir. Bu musulmon emas, mening ummatim emas deganlaridir. Nima uchun yoshi kattalarni qadrlash yoshlarni e'zozlash kerakligi to'g'risida payg'ambarlar,

donishmandlar, xalq ichida yurgan ko'pni ko'rgan ziyoli olimlaru, yoshi ulug' bo'lgan otaxonlarimiz bu haqda bot-bot eslatishadi.

Biz shu yurtda shu zaminda yashab yurgan ekanmiz bir-birimizni hurmat qilishimiz, bir-birimizni qadrlashimiz shart va zarurligi hattoki hadislardayam aytib o'tilgan. Chunki qadr-qimmat yo'qolsa yoshlarning izzati, keksalarning hurmati, insonning insoniylik fazilati yo'qoladi, hayot barbot bo'ladi. Zotan insonni ulug'lash, e'zozlash, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish dinimizning maqsadlaridan biridir. Lekin ming afsuski hozirgi kun haqiqatlaridan biri shuki molu davlat ketidan quvib, tirikchilik dardida yurib, mansab izidan quvlab qadr qimmat degan tushunchalarni sal chetga surib qo'ymadikmikin. Hozirgi kecha kunduzda hayotimiz davomida shunday kishilarni ko'rdikki qadr-qimmat, hurmat degan tushunchalarni pul bilan o'lchaydiganlar topiladi. Shunday kishilarni ko'rdikki ota-onasini, aka-ukalarini qadrlamay ularni holidan xabar olmay qanaqangir yetti yot begona bo'lgan "akaxon" u "opaxon" larini qadrlaydigan, ularni yo'qlab turadigan, qimmatbaho sovg'a salomlar bilan siylaydigan o'z manfaati uchun hurmat ko'rsatadigan soxta mehribonlarimiz ko'paygan.

Mehr oqibat, qadr-qimmat ham qanaqadir manfaatlar yo'lida, nafs yo'lida qurbon bo'lmadimikin?

Hayotda yana shunday "saxovatpesha" kishilarni uchratamizki u kishi saxovatpesha bo'lib turli xil ziyofatlar, xudoyilar, qurbonliklar, to'ylar tashkil qilib xalqqa o'zlarini ko'z-ko'z qiladilar lekin bechorahol akani, singilni, hattoki qarovsiz qolgan ota-onani, kasalmand yotgan qarindoshni holidan xabar olmaydi.

"Ey mo'minlar, sadaqangizni odamlarga ko'rinish uchun sarflaydiganlar kabi Allohga va oxirat kuniga iymon keltirmaydiganlar kabi sening hadyatingizni eslatish bilan halok qilmang" deyilgan Qur'oni karimda.

Shunday ekan xayru-ehsonni ham, mehr muhabbatni ham, qadr qimmatni ham o'z oilamizdan, atrofimizdan, mahallamizdan, yaqinlarimizdan boshlashimiz shart va zarur.

"Inson qadrini ulug'lash - yurtimizda yashayotgan har bir odamning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini ta'minlash demakdir" dedi prezidentimiz.

Shunday ekan aziz hamyurtlarimiz insonniq qadr qimmatini har narsadan ustun qo'yib, bir-birimizni har doim qadrlab yurib asl o'zbek yurtiga munosib bo'laylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1."Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" I.A.Karimov, 1999,
2. "Saodat asri qissalari"
- 3.11-sinf din tarixi
4. www.ziyonet.com